

1940-1950 YILLARDA O‘ZBEKISTON SSRDA G‘ALLACHILIK MASALALARI (Farg‘ona vodiysi misolida)

GRAIN ISSUES IN THE UZBEK SSR IN THE 1940S-1950 S (On the example of the Fergana Valley)

ЗЕРНОВОЙ ВОПРОС В УЗБЕКСКОЙ ССР В 1940-1950-Е ГОДЫ (в случае Ферганской долины)

Khojamov Muzaffar Rasuljonovich,

*Namangan davlat chet tillari instituti, Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasida katta
o‘qituvchisi, Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya.

Mazkur maqolada O‘zbekiston SSRda 1940-1950 yillarda aholining oziq-ovqat ta‘minotini olib borishda g‘alla va don yetishtirish, bu borada hukumat tomonidan olib borilgan chora-tadbirlar, uning natijasida g‘alla ta‘minoti, aholini don va un, non ta‘minotini borasidagi muammolar masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar.

O‘zbekiston SSRda g‘alla ta‘minoti, 1940-1950 yillar, oziq-ovqat ta‘minotida don va un , bug‘doy yetishtirish masalalari, mavjud muammolar, yechim, chora-tadbirlar.

Аннотация.

В данной статье освещены зерно и зерноводство в Узбекской ССР в 1940-1950 годах, меры, принятые правительством в этой связи, проблемы, связанные с хлебо снабжением, хлебом и мукой, снабжением населения хлебом

Ключевые слова.

Хлебозаготовки в Узбекской ССР в 1940-1950-е годы, вопросы продовольственного снабжения зерном и мукой, выращивание пшеницы, существующие проблемы, пути решения, меры.

Abstract.

In the current state of grain and grain production in the Uzbek SSR in 1940-1950, the government adopted the government and the government, problems related to bread, bread and flour, and the nation's bread.

Keywords.

Grain supply in the Uzbek SSR, 1940-1950s, issues of grain and flour in food supply, wheat cultivation, existing problems, solutions, measures.

O‘zbekistonda bug‘doy g‘allachilikning asosiy yo‘nalishlaridan biri xisoblanadi. O‘zbekiston SSR xukmati tomonidan ishlab chiqilgan favquloddagi rejaga ko‘ra respublika 1942 yildan boshlab o‘zini o‘zi mustaqil g‘alla bilan to‘liq ta‘minlanishi shart edi. Buning natijasida respublika umumiy g‘alla xosilini amaldagi (1941 yil) 5-6 mln sentnerdan kelasi yil uchun (1942 yil) 12-15 mln sentnerga olib chiqishi zarur va kechiktirib bo‘lmas masala edi[1:B.127].

Shu o‘rinda aholini non bilan ta‘minlashda g‘alla ososiy fundament qishloq xo‘jaligi mahsuloti bo‘lib uning ta‘minotida respublika non ta‘minotida urush boshlagan kezlari dayoq nonning ta‘minoti yechimi kechiktirib bo‘lmas jiddiy masala ekanini ko‘rsata boshladi. Masalan, Farg‘ona vodiysining sharqiy viloyatlaridan bo‘lgan va aholi salmog‘i yuqori bo‘lgan Andijon viloyati g‘allaga bo‘lgan talabini olsak, viloyatning g‘allaga (donga) extiyoji 1941 yil avgustdan

1942 yil 1 yanvarigacha vaqtda 33 724 tonnani tashkil etadi. Lekin yeg'ib olingan g'alla jami bo'lib, 7642, 8 tonnani tashkil qildi. Yeg'ib olingan viloyatdagi umumiy g'alla shu yillarda viloyat aholisini don va nonga bo'lgan ehtiyojini atiga 22,6 % ni qondira olgan[2:B.13]. Ko'rish mumkinki don va non masalasi jiddiy muammo bo'ldi.

O'zbekiston SSRning 1941 yildan 1945 yilgacha yani urush boshlangan va yakunlanguncha bo'lgan vaqtdagi don va aholini non bilan ta'minlash zaxirasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, masalan, 1942 yil 1 may xolatiga ko'ra, respublikani (Qoraqalpog'iston va Xozrazimdan tashqari) 10 ming tonna g'alla zaxirasi mavjud edi. Shu davrda O'zbekiston aholisining g'allaga bo'lgan sakkiz kunlik ehtiyoji 16 ming tonnani tashkil etardi[3:B.28] va buni bir yil davomiga hisoblasak o'rta xisobda kuniga 2 ming tonna, yiliga esa 730 ming tonna g'alla aholining don va nonga bo'lgan ehtiyoji zarur edi.

Natijada, O'zbekiston SSRda bug'doy bilan birga g'allaning sholi turini ham ke'g'aytirish, hususan, guruch yetishtirish va tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Qishloq xo'jaligida bug'doy yetishtirish salmoqli o'ringa ega bo'lib, guruch yetishtirishda esa O'zbekiston Ittifoq hududida eng yuqori o'rinlarda turadi. O'zbekistonda sholichilik bo'yicha ekin maydonlari ulushi butun ittifoqda yetishtiriladigan sholikorlik yerlarining yarmiga teng va SSSRning eng asosiy sholichilik ombori bo'lib hizmat qildi. Urushdan oldingi yillarda bir qator irrigasiya inshootlari va tarmoqlarini ishga tushirilishi sholichilikda o'n minglab yangi yerlarni o'zlashtirish imkonini berdi.

1941 yil O'zbekistonda 83 257 gektar maydonga sholi ekilgan. Urushning boshlanishi o'z navbatida g'allaga bo'lgan umumiy ehtiyojni oshirdi. Natijada 1942 yilda 1941 yilga nisbatan sholi maydonlarining o'sishi qo'shimcha 20 ming gektarga o'zgardi[2:B.20]. Sholikorlik maydonlarning o'zgarishi xosilning o'sishiga ham ijobiy ta'sir qildi va 1942 yil O'zbekistonda sholining xosildorligi o'rtacha 22,8 sentnerni tashkil etdi[3:B.20]. Respublika bo'yicha eng yuqori xosildorlik ko'rsatgichi Toshkent viloyatida 39,5 sentner, Farg'ona viloyatida 33,0 sentner, Namangan viloyatida 31,4 sentner tashkil qildi. Demak 1940 yilda Respublika bo'yicha 79813 gektarga sholi ekilgan bo'lsa, 1941 yil 83257 gektarga, 1942 yilga kelib 102,5 ming gektar maydonga sholi ekilgan [4:B.3].

Sholi yetishtirish va uning mahsuldorligi doim ham bir hil kechmadi. Chunonchi, 1943 yil sholi ekishlari erta bajarilishiga qaramay xosildorlik gektariga 21,7 sentnerni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 1,1 sentnerga kam edi [5:B.3]. Bunga sabab sholikorlik ishlari asosan og'ir mehnatni talab qilardi va unda erkaklarning ishchi kuchi yetishmasligi, asosan ayollar zimmasida qolayotgani va sholi ekish maydonlarida melarativ xolatining yomonlashgani, qishloq xo'jaligi texnikalarining yetishmasli va deyarli barcha agrotexnika ishlari qo'l mehnati bilan bajarilishi sabab bo'ldi.

Sholini oqlash va guruch shaklida tayyor mahsulot qilib, iste'molga yetkazib berishda Respublika guruch zavodlari ham salmoqli ish bajargan. Masalan, 1944 yil SSSR Mahsulot tayyorlash xalq Komissarligining Toshkent viloyat Qorasuv tumanida joylashgan 3-guruch zavodi yilning birinchi kvartal boshida kuniga 2617 tonna sholini oqlab, tayyor guruch yetkazib bergan bo'lsa, kvartal oxiriga kelib bu

ko'rsatgichni 100 tonna guruch tayyorlab, iste'mol uchun yetkazib berdi [6:B.3]. Sentyabr oyiga kelib zavod qayta ta'mirlanib qayta ochilgach, bir kunda aholi iste'moli uchun 40-43 tonna guruch tayyorlab, yetkazib berdi.

Sholikorlik yerlarini kengaytirish hisobiga 1944 yilga kelib ekish rejasi 25 may xolatiga 53,5 % ga bajarildi va bu ko'rsatgich 1943 yil aynan davriga 76,6 % ga bajarilgan edi [7:B.4]. Bunga sabab aksariyat hududlarda suv ta'minotining paxtachilik tarmoqlari uchun sarflanishi bo'ldi. Natijada mavjud ekilgan sholikorlik yerlari ham begona o't bosishi va suvsizlik natijasida zarar ko'rdi [8:B.34].

1950 yilga kelib O'zbekiston bo'yicha sholi yetishtirish gektaridan o'rta hisobda 16 sentnerni tashkil qildi va yalpi xosil 570 ming sentnerni tashkil etdi. Masalan, Xorazm viloyati Gurlan tumani "Stalin" nomli kolxoz gektaridan 55-70 sentnerdan, Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani "Polyanaya Zvezda" kolxozi 40-45 sentnerdan, Andijon viloyati "Stalin" nomli kolxozi 45 sentnerdan sholi yetishtirib, iste'molda guruch taminotini ta'minlashda asosiy xo'jaliklar bo'ldi.

1953-1958 yillarda Respublika bo'yicha jami bo'lib 3,5 mlrd pud [9:B.319] g'alla yetishtirildi [10:B.142].

Mamlakatda oziq-ovqat ta'minoti olib borishda bug'doy va sholidan tashqari yana makkajo'xori ham ekish yetakchi o'rinlarni egalladi. Makkajo'xori ikki maqsadda yetishtirilar edi. Birinchi navbatda makkajo'xori uni tayyolash bo'lib, nafaqat sanoat usulida, balkim mahalliy aholining kundalik turmush tarzida asosiy oziq-ovqat turlaridan biri bo'lgan. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Sovet Ittifoqi respublikalari ichida O'zbekiston hususan Farg'ona vodiysi XX asrning 1940-1950 yillarida ham asosiy paxtachilik hududi bo'lib qolaverdi. Bu esa mavjud aholini g'alla va g'alla mahsulotlari bilan ta'minlashda mavjud muammoni yanada chigallashtirdi. Natijada respublikada nonga va unga bo'lgan talab yil sayin o'sib bordi, ammo kamaymadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ризаев.Г. Аграрная политика советской власти в Узбекистане. 1917-1965 гг. –Ташкент.Узбекистан.1967.-С.127.
2. Пўлатов И. Улуғ ватан уруши ғалабасига Ўзбекистон меҳнаткашларининг қўшган ҳиссалари. Тошкент: Ўзбекистон.1967й.-Б.13.
3. Бабажанов.Х. Иккинчи жаҳон уриши йилларида Ўзбекистонда озиқ-овқат сиёсатининг амалга оширилиши. Монография. – Тошкент: “Академнашр”, 2022.
4. Ўз МА, Р-90-фонд, 6- рўйхат, 5530-иш, 1-3варақ
5. Ўз МА, Р-90-фонд, 6- рўйхат, 5530-иш, 1-3варақ
6. Қизил Ўзбекистон. 1944 йил 20март. – № 63. – Б. 3.
7. Қизил Ўзбекистон. 1944 йил 7 октябр. – № 199. – Б. 4.
8. Ўз МА, Р-1619-фонд, 10- рўйхат, 743-иш, 34 варақ
9. Ўз МА, Р-1619-фонд, 10- рўйхат, 743-иш, 34 варақ
10. Пуд – русча.бир пуд-16,38 кг тенг оғирлик ўлчов бирлиги.бир тонна-сал кам 63пуд. Қаранг: Ўзбек тилининг изохли луғати. Тўртинчи жилд. – Тошкент.: ЎзМЭ,. 2007. – Б.319.